# ҚАРАҚАЛПАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ ХАЛЫҚ БИЛИМЛЕНДИРИЎ МИНИСТРИНИҢ БУЙРЫҒЫ

**Улыўма орта билим бериў мәкемелеринде кәсип-өнерге бағдарлаў жумысларын шөлкемлестириў ҳаққында**

Халық билимлендириў системасында алдыңғы шет ел тәжирийбелерди әмелде қоллаған ҳалда заманагөй мийнет базары талапларынан келип шығып, кәсип-өнерге бағдарлаў, психологиялық қоллап-қуўатлаўдың заманагөй форма ҳәм методларын енгизиў ҳәм де Өзбекстан Республикасы Президентиниң "Өзбекстанның жаңа раўажланыў дәўиринде тәлим-тәрбия ҳәм илим-пән тараўларын раўажландырыў ис-илажлары ҳаққында"ғы 2020-жыл 6-ноябрь күнги ПП-6108-санлы пәрманының орынланыўын тәмийинлеў, оқыўшыларды саналы ҳәм ғәрезсиз кәсип таңлаўларына методикалық жәрдем көрсетиў ҳәм көмеклесиў мақсетинде

БУЙЫРАМАН:

1. Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2021-жыл 8-июнь күнги "Исши кәсиплер бойынша кадрларды таярлаў системасын және де жетилистириў ис-илажлары ҳаққында"ғы ПҚ-5140-санлы қарары ҳәм усы қарар тийкарында2021-жыл 20-август күни қабылланған Өзбекстан Республикасы Халық билимлендириў министрлиги Оқыўшыларды кәсип-өнерге бағдарлаў ҳәм психологиялық-педагогикалық Республикалық Диагностика Орайының "Улыўма орта билим бериў мәкемелеринде кәсип-өнерге бағдарлаў жумысларын шөлкемлестириў ҳаққында"ғы 26-санлы буйрығы орынлаў ушын басшылыққа алынсын.

2. Улыўма орта билим бериў мәкемелеринде оқыўшыларды кәсип-өнерге бағдарлаў, оларды билимлендириўдиң кейинги басқышына қамтып алыў ҳәм де бәнтлигин тәмийинлеў бойынша иси-лажлар режеси 1-қосымшаға, "Устаз-шәкирт" дастури бойынша оқыўшыларды кәсип-өнерге бағдарлаў ҳәм қәнигелигин арттырыў бойынша көрсетпе 2-қосымшаға, Улыўма орта билим бериў мәкемелеринде "Кәсиплер айлығы"н шөлкемлестириў ҳәм өткериў тәртиби 3-қосымшаға муўапық тастыйықлансын.

3. Министрликтиң Педагогикалық-психологиялық диагностиканы шөлкемлестириў Секторы (Э.Нуртаев)на:

- тастыйықланған "Устаз-шәкирт" дастури бойынша көрсетпе, "Кәсиплер айлығы"н шөлкемлестириў ҳәм өткериў тәртиби тийкарында билимлендириў мәкемелеринде шөлкемлестириў бойынша методистлер ушын вебинарлар өткериў;
- улыўма орта билим бериў мәкемелеринде кәсип-өнерге бағдарлаў жумысларын нәтийжели шөлкемлестириўи бойынша методист ҳәм псмихологларға методикалық жәрдем бериў ҳәм мониторингин алып барыў ўазыйпалары тапсырсын.

4. Барлық қалалық, районлық халық билимлендириў бөлимлери баслықлары, Республикалық бойсыныўындағы билимлендириў мәкемелери директорларына:

- тастыйықланған ис-илажлар режесин барлық улыўма орта билим бериў мәкемелерине жеткериў, ис-илажда белгиленген ўазыйпалардын көрсетилген мүддетлеринде орынланыўын тәмийинлеў;

- улыўма орта билим бериў мәкемелеринде "Устаз-шәкирт", "Кәсиплер айлығы"н белгиленген тәртипте шөлкемлестириўин қадағалаў;

- аймақларда жергиликли шөлкемлер менен биргеликте профессионал билимлендириў мәкемелеринде, өндирислик карханаларында "Ашық есиклер күни"н шөлкемлестириў, мектеп оқыўшылар ҳәм олардың ата-аналарының қатнасыўын тәмийинлеў;

- улыўма орта билим бериў мәкемелериниң Руўхый-ағартыўшылық ислери бойынша директор орынбасарлары, жаслар жетекшиси, класс басшылары, психолог ҳәм пән муғаллимлерин кәсип-өнерге бағдарлаў бойынша белгиленген ўазыйпалардың орынланыўын қадағалаўға алыў;

- ҳәр айдың 25-сәнесине шекем аймақларда әмелге асырылған жумыслар бойынша есабатларды министрликке жеткерип бериў ўазыйпалары тапсырылсын.

5. Усы буйрықтың орынланыўын қадағалаўды министрдиң орынбасары Ш.Таджимуратовқа жүкленсин.

**Министр** **Р.Реимов**

№ 202/1

«13» 09 2021-жыл

QR Xalq ta'limi vazirligining 2021 yil
"13" sentabr dagi 2021/1-
-sonli buyrug'iga 1-ilova

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularni ta'limning keyingi bosqichiga jalb qilish hamda bandligini ta'minlash bo'yicha**
**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| № | Tadbir nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Muddati | Mas'ullar |
|---|---|---|---|---|
| **I. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish** | | | | |
| 1. | O'quvchilarni mustaqil va ongli kasb tanlashlariga, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga va kelajak maqsadlarini belgilashiga ko'maklashishni tashkil etish. | 1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 7-11-sinf o'quvchilari uchun kasb-hunarga yo'naltirish to'garaklarini tashkil etish uchun mashg'ulotlar dasturi va ishlanmalarini ishlab chiqish.<br>2. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish to'garak mashg'ulotlari dasturi va ishlanmalarini belgilangan tartibda tasdiqlash va amaliyotga joriy etish.<br>3. Tasdiqlangan to'garak mashg'ulotlari dasturi va ishlanmalari asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish to'garaklarini tashkil etish. | 2021 yil oktyabr<br>2021 yil 15 oktyabr<br>O'quv yili davomida | O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi<br>Umumiy o'rta ta'lim muassasalari |
| 2. | Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 7-11-sinf o'quvchilarida kasblar haqidagi bilimlarini oshirish, kasb tanlashlariga ko'maklashish, ularda kasbiy motivatsiyani shakllantirish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida "Kasblar oyligi"ni tashkil etish va o'tkazish. | 1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Kasblar oyligi"ni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan tartibni amaliyotga joriy etish bo'yicha xalq ta'limi bo'limi psixolog-metodist va metodistlar uchun vebinar o'tkazish.<br>2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Kasblar oyligi"ni tashkil etish va o'tkazish tartibi asosida har oylikda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. Unda:<br>- o'quvchilar ishtirokida fan o'qituvchilari tomonidan kasb-hunarga yo'naltirish mavzusida "Ochiq dars" | 2021 yil oktyabr<br>O'quv yili davomida tasdiqlangan jadval asosida | O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi<br>Xalq ta'limi bo'limi, umumiy o'rta ta'lim muassasalari tegishli va tashkilotlar bilan hamkorlikda |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | mashg‘ulotlarini o‘tkazish;<br>- yoshlar yetakchisi boshchiligida o‘quvchilar bilan devoriy gazetalar tayyorlash va maktabda ko‘rgazma tashkil etish;<br>- sinf rahbarlari, yoshlar yetakchisi, ota-onalar kuzatuv kengashi bilan birgalikda o‘z hududidagi ishlab chiqarish korxonalari, fermer xo‘jaliklari, professional ta’lim muassasalari va shu kabi boshqa tashkilotlarga ekskursiyalar tashkil etish;<br>- maktabda kasblar haqida ma’lumot beruvchi kitoblar, jurnallar, gazetalar va boshqa ommaviy axborot vositalarini yaramarkasini tashkil etish;<br>- kasb-hunarga oid mavzularda 7-8-sinf o‘quvchilari uchun diktant, ijodiy bayon, 9-, 10-, 11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida “Men orzu qilgan kasb”, “Men tanlagan kasbning kelajak hayotimdagi o‘rni” va boshqa shu kabi mavzularda insholar tanlovini tashkil qilish;<br>- ta’lim muassasasi psixologi o‘quvchilarni yosh hususiyatlarini inobatga olib mustaqil va ongli kasb tanlashlariga qaratilgan kasbiy va psixologik metodikalarni hamda trening mashg‘ulotlarni o‘tkazish. | | |
| 3. | Ta’lim muassasalarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samaradorligini oshirishda keng jamoatchilikni jalb qilgan holda o‘quvchilarga “Ustoz-shogird” an’anasi bo‘yicha kasb-hunar sirlarini o‘rgatish. | 1. “Ustoz-shogird” an’anasi bo‘yicha o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va malakalarini oshirish bo‘yicha yo‘riqnomani amaliyotga joriy etish bo‘yicha xalq ta’limi bo‘limi psixolog-metodist va metodistlar uchun vebinar o‘tkazish.<br><br>2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Ustoz-shogird” an’anasini tashkil etish choralarini ko‘rish. Unda:<br>- 10-11-sinf o‘quvchilarining ota-onalarini kasbi va ish joylari to‘g‘risida ma’luumotlar bazasini shakllantirish;<br>- Yo‘riqnoma asosida ota-onalarning roziligi bilan o‘quvchilarni shogirdlikka biriktirish;<br>- Kuzatuv kengashi va MFY hamkorligida | 2021 yil oktyabr<br><br><br><br><br>Har o‘quv yili davomida | O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi<br><br><br><br><br>Xalq ta’limi bo‘limi, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | o'quvchilarni xavfsizligi nuqtaiy nazardan doimiy nazoratini olib borish, ota-onalari bilan doimiy aloqada bo'lish. | | |
| 4. | Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida "Kelajakka intilib", "Hayotga yo'l", "Kasbim–faxrim" va shu kabi mavzularda insholar tanlovini o'tkazish. | 1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida insholar tanlovini Nizomini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.<br>2. Tasdiqlangan Nizom asosida maktabning 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida insholar tanlovini o'tkazish.<br>3. Maktabda eng yaxshi deb topilgan insholarni mahalliy ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va esdalik sovg'alari bilan taqdirlash. | 2022 yil yanvar<br>2022 yil aprel | O'quvchilarni kasbga yo'anltirish bo'limi<br>Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ona tili va adabiyoti o'qituvchilari, yoshlar yetakchisi, psixologi |
| 5. | Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf o'quvchilari o'qishni tamomlagandan so'ng qaysi ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirishi bo'yicha hoxish-istaklarini aniqlash uchun "So'rovnoma" o'tkazish. | 1. Respublikamizda mavjud kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlar va akademik litseylar haqida ma'lumotlar berish.<br>2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf o'quvchilari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish va ularga tavsiyalar berish | O'quv yili davomida<br>2022 yil fevral va aprel | QR Xalq ta'limi vazirligi, Tuman (shahar) XTB, umumiy o'rta ta'lim muassasalari |
| **II. O'quvchilarni kasbiy qiziqishi, layoqati va moyilliklarini aniqlash bo'yicha psixologik-pedagogik diagnostikalar** | | | | |
| 6. | Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 7-11-sinf o'quvchilarini psixologik-pedagogik diagnostika metodikalari asosida tug'ma moyilligi, qiziqishi, layoqati va qobiliyatlarini erta yoshdan aniqlash, ularga o'zlari tanlagan kasblarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushunchalarni singdirib borish. | 1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 7-11-sinf o'quvchilari o'rtasida psixologik-pedagogik diagnostik metodikalarni **"Kasbim-kelajagim"** yagona axborot onlayn platformasiga joylashtirish.<br>2. **"Kasbim-kelajagim"** yagona axborot onlayn platformasiga joylashtirilgan psixologik-pedagogik diagnostik metodikalardan o'quvchilar amalda foydalanishlari uchun xalq ta'limi bo'limi psixolog-metodist va metodistlarga vebinarlar tashkil etish. | 2021 yil oktyabr | O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi |
| 7. | O'quvchilarni kasbiy qiziqishi, layoqati va moyilliklarini aniqlash bo'yicha psixologik-pedagogik | 1. 7-sinflar uchun "Maqsadlarga intilish" testi, 8-sinflar uchun "Muloqotchanlikning darajasini aniqlash" testi, 9-sinflar uchun "Shaxs yo'nalganligini aniqlash" | 2021 yil sentyabr | QR Xalq ta'limi vazirligi, Tuman |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | metodikalarni “Kasbim-kelajagim” nomli yagona axborot platformasi orqali o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va o‘quvchilarga tavsiyalar berish. | metodikasi, 10-sinflar uchun “O‘quv motivatsiyasining yo‘nalganligini diagnostika qilish”, 11-sinflar uchun “O‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash”testini o‘tkazish. | | (shahar) XTB, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari |
| | | 2. 7-sinflar uchun “Tashkilotchilik qobilyatini aniqlash” testi, 8-sinflar uchun “O‘quvchilarning qiziqishlarini aniqlash” so‘rovnomasi, 9-, 10-sinflar uchun “O‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash”testi, 11-sinflar uchun “Kasb tiplarini aniqlash” metodikasini o‘tkazish. | 2021 yil oktyabr | |
| | | 3. 7-sinflar uchun “Tashkilotchilik qobilyatini aniqlash” testi, 8-sinflar uchun “O‘quvchilarning qiziqishlari, qobilyatlari va intilishlarini aniqlash” metodikasi, 9-sinflar uchun “Kasb tanlash motivini aniqlash” metodikasi, 10-sinflar uchun Kasbiy moyillik” so‘rovnomasi, 11-sinflar uchun “Qiziqishlar xaritasi” testini o‘tkazish. | 2021 yil noyabr | |
| | | 4. 9-, 10-sinflar uchun “Qiziqishlar xaritasi” testini o‘tkazish. | 2021 yil dekabr | |

**O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI DIREKTORINING BUYRUG‘I**

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida**

Xalq ta’limi tizimiga ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etgan holda zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqib, kasb-hunarga yo‘naltirish, psixologik qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli farmoni ijrosini ta’minlash, o‘quvchilarni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashlariga metodik yordam berish va ko‘maklashish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularni ta’limning keyingi bosqichiga jalb qilish hamda bandligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

“Ustoz-shogird” an’anasi bo‘yicha o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va malakalarini oshirish bo‘yicha yo‘riqnomasi 2-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Kasblar oyligi”ni tashkil etish va o‘tkazish tartibi 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi boshlig‘i (X.Foziijonov)ga:

- “Kasbim-kelajagim” nomli yagona kasbiy axborot platformasi uchun kasblar olami haqida, o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, layoqati va moyilliklarini aniqlashga mo‘ljallangan psixologik-pedagogik metodikalar va shu kabi materiallarni takomillashtirish hamda joylashtirish;
- tasdiqlangan “Ustoz-shogird” an’anasi bo‘yicha yo‘riqnoma, “Kasblar oyligi”ni tashkil etish va o‘tkazish tartibi asosida ta’lim muassasalarda tashkil etish bo‘yicha metodistlar uchun vebinarlar tashkil etish;
- joriy o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 7-11-sinf o‘quvchilarini kasbiy bilimlarini yanada oshirish maqsadida sinflar kesimida to‘garak mashg‘ulotlari ishlanmasini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish choralarini ko‘rish;
- kasblar haqida ma’lumot beruvchi professoagrammalarni infografikalarini tayyorlash;
- umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini samarali tashkil etilishi bo‘yicha metodist va psixologlarga metodik yordam berish hamda monitoringini olib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyat xalq ta’limi boshqarmalarining pedagogik-psixologik tashxis faoliyatini tashkil etish sho‘ba rahbarlariga:

tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasini barcha ta’lim muassasalariga yetkazish, unda belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Kasblar oyligi”, “Ustoz-shogird” an’analarini belgilangan tartibda tashkil etilishini nazorat qilish;

hududdagi mahalliy tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda professional ta’lim muassasalarida, ishlab chiqarish korxonalarida “Ochiq eshiklar kuni”ni tashkil etish, maktab o‘quvchilari va ularning ota-onalarini ishtirokini ta’minlash;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, yoshlar yetakchisi, sinf rahbarlari, psixolog va fan o‘qituvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha belgilangan vazifalarini ijrosini nazoratga olish;

**har oyning 25-sanasiga qadar** hududda kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yozma xisobotlarni Markazga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur buyruq ijro nazoratini direktorning birinchi o‘rinbosari K.Jo‘raboyev zimmasiga yuklatilsin.

**Direktor** **L.Gaynutdinova**

Toshkent sh.,
2021 yil “20” avgust
26-son